



Ўзбекистон Республикаси  
Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги  
Тошкент Ирригация ва мелиорация институти  
“Педагогика, психология ва ўқитиш  
методикаси” кафедраси

# МАВЗУ -5

Махсус фанларни ўқитишда назарий  
дарсни ташкил этиш ва ўтказиш  
методикаси



**Ўзбекистон Республикаси  
Президенти  
И.А.Каримов**

***“Бизнинг асосий  
бойлигимиз, ривожлан-  
ган давлат  
тузулишига олиб  
борадиган йўлдаги  
асосий таянчимиз  
инсондир. Юксак  
малакали ва юксак  
маънавиятли  
инсондир”***

## Reja:

- *Nazariy ta`lim metodlari*
- *O`qitish metodlari klassifikatsiyasi.*
- *Amaliy kasbiy ta`lim shakllari va metodlari.*
- *Dasturlashgan o`qitish texnologiyasi*

Har tomonlama kamol topgan, texnikadan ma`lumoti bo`lgan ishchilar tayyorlash masalasi, avvalo, o`qitish jarayonida hal qilinadi.

*O`qitish jarayoni* pedagogning (o`qituvchi, musbatning) va u rahbarlik qilayotgan o`quvchilarning bilim, uquv hamda malakalar sistemalarini ongli ravishda va puxta o`zlashtirishga qaratilgan izchil harakatlari majmuidan iborat.

KHK maktablaridagi ta`lim o`quvchilar shaxsini shakllantirishning, ularni aqliy va jismoniy kamol toptirishning, umumiy hamda professional bilim berishning eng muhim vositasidir. Ta`lim berishda uning ikki tomoni: o`qitish va o`qish tomonlari hamma vaqt ravshan ajralib turadi.

*O`qitish*-o`qituvchining o`quvchilarga bilim, uquv va malakalar sistemasi berish, ularning bilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasidagi faoliyati.

*O`qish* — o`quvchilarning o`quv fani materialini o`zlashtirish borasida qiladigan sistemali va ongli mehnati.

- Kasb-hunar kollejining o`quv rejalarida nazariy va ishlab chiqarish ta`limini birga berish ko`zda tutilgan. Nazariy ta`limning vazifasi, mazmuni, usullari, tashkiliy shakllari o`ziga xos xususiyatlarga ega bo`lib, bitta maqsadga, ya`ni yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratiladi. SHuning uchun nazariy va ishlab chiqarish ta`limi kasb-hunar kollejlaridagi o`quv jarayonining mustaqil, ammo o`zaro aloqador qismlari hisoblanadi.
- Ta`limda nazariy dars soatlari bilan amaliy mashg`ulotlarning soatlari ma`lum navbatda bo`lishi lozim. Bunda o`quvchilar o`rganilayotgan fan bilan tanish yoki tanish emasligini nazarda tutish zarur.
- Nazariy ta`lim darslarining tashkiliy shakllarini to`g`ri tanlash katta ahamiyatga ega. Bunda darsni o`tish joyi va tartibi, o`quvchilarning faoliyati hamda darsda ularni guruhlariga ajratish, dars davomida o`qituvchi bilan o`quvchilar orasidagi aloqaning mohiyati ko`zda tutiladi





- *Ta`lim berish (o`qitish)* metodlari deganda, pedagog (o`qituvchi va usta) hamda o`quvchilarning ish usullarini tushunmoq kerak. O`qitish metodlari yordamida o`quvchilar kasbga oid ishlarni sifatli va yuqori unum bilan bajarishi uchun zarur bo`lgan bilim, uquv hamda malakalarni puxta egallaydilar, ularning dunyoqarashi shakllanadi, mustaqil ravishda bilim olish va bu bilimlarni ijodiy tatbiq etish qobiliyatlari rivojlanadi. Ta`lim berish metodlari, o`qitish pozisiyasidan qaraganda, o`quvchilarning bilish faoliyatiga o`qituvchining rahbarlik qilish usullaridir.
- O`qitish jarayoni murakkab va ko`p qirrali bo`lib, shaxsiyatda xilma-xil va turli xarakterdagi faktorlarga bog`liq. O`qituvchi o`qitish metodlarining bitmas-tuganmas xazinasiga ega. Bu metodlar har xil o`quv samarasi berishi va konkret o`quv sharoitida o`quvchilarning bilish faoliyatining har xil darajasini ta`minlashi mumkin. O`qituvchi pedagogika fani, ilg`or tajriba ishlab chiqqan o`qitish metodlarini bilib olgan, o`z mahoratini muntazam oshirib borgan taqdirdagina o`z vazifasini muvaffaqiyatli bajara oladi.

- **. O`qitish metodlari klassifikatsiyasi**
- O`qituvchi o`qitish metodlaridan yaxshiroq foydalanish uchun ularni ma`lum sistemada ko`z oldiga keltirishi kerak. Ammo didaktikada ularning yagona klassifikatsiyasi yo`q. O`qitish metodlarining har xil klassifikatsiyalarini analiz qilmay, ularning ba`zilarini keltirib o`tamiz.
- ***O`qitishda o`quvchining harakatlari xarakteristikasiga ko`ra:*** aktiv metodlar (tajriba metodi, kitob bilan ishlash) passiv metodlar (so`zlab berish, ma`ruza, tushuntirish, namoyish qilish, ekskursiya).
- ***O`quvchining bilish faoliyatida mustaqillikning rivojlanish darajasi (tashkil etilish darajasi) bo`yicha:*** so`zlab berish, muammoli, qisman izlanishli tadqiqiy metodlar.
- ***Bilim manbalariga ko`ra:*** og`zaki, ko`rsatmali, amaliy metodlar.



- Bu klassifikasiyalarning barchasi o`qitish metodlarini har xil tomondan ochib beradi, ammo ulardan birortasi metodlar sistemasini uzil-kesil xarakterlab bera olmaydi. Pedagogika nazariyasi va praktikasida o`qitish metodlarini bilim manbalari bo`yicha klassifikasiyalash ko`p qo`llaniladi, chunki u an`analar asosida vujudga kelgan bo`lib, o`quv jarayonining talablariga to`liq javob beradi.
- KHKlarida dars bilan bir qatorda, o`quv mashg`ulotlarini tashkil kilishning boshqa formalari ham qo`llaniladi. Ularning asosiylari: ekskursiyalar, seminar mashg`ulotlari, o`quv konferensiyalari, o`quvchilarning uyda qilinadigan o`quv ishlari, qo`shimcha mashg`ulotlar.

- Ba`zi hollarda usul metodning tarkibiy qismi hisoblanadi. Masalan, og`zaki bayon etish metodi qo`llanilganda o`qituvchi o`quvchilarni o`rganilayotgan materialni idrok etishga, uni mantiqan bog`langan qismlarga ajratishga tayyorlash, o`quvchilarga yo`l-yo`lakay savollar berish kabi metodik usullardan foydalanadi.
- Didaktika asoschisi YA A. Komenskiy bunday yozgan edi: «O`quvchilar biror fanni o`rganishga kirishar ekanlar, ularning aqli ana shunga tayyor bo`lishi kerak». O`quvchilarni yangi bilimlarni idrok etishga tayyorlashning mohiyati ana shunda.
- O`quvchilarni yangi bilimlarni idrok etishga tayyorlash usullari ko`p, bu usullardan qay birini qo`llash lozimligi o`rganiladigan materialning mazmuniga, uning qanchalik muhimligiga, o`quvchilarning qanchalik tayyorlanganligi va o`qituvchining tajribasiga bog`liq

- O`quvchilarning o`rganiladigan material bilan tanishtirishning eng ko`p tarqalgan usullaridan biri o`quvchilar bilib olgan materiallar bilan bilishi kerak bo`lgan materiallar orasiga «ko`prik solish» maqsadida, ilgari o`rganilgan materialning asosiy joylarini takrorlashdan iborat.
- O`quvchilarni yangi o`quv materialini idrok etishga tayyorlashning muhim elementi ularga dars temasini va darsdan ko`zda tutilgan maqsadni bildirishdan iborat. Maqsadning qo`yilishi o`quvchilarni o`qituvchi bayon etadigan materialni o`ylash, analiz qilish va umumlashtirishga, ilgari olingan bilimlar asosida yangi bilimlarni mustaqil izlashga rag`batlantirmog`i lozim.

- Yangi o`quv materialini bildirish o`qituvchi ishidagi asosiy masaladir. Yangi materialni bildirishda, asosan, og`zaki metodlardan: og`zaki bayon etishdan (so`zlab berish, tushuntirish, ma`ruza, suhbatdan), o`quvchilarning kitob bilan ishlashidan va ko`rsatma qo`llanmalar, slaydlar, o`rgatuvchi dasturlar, tajribalar ko`rsatishdan foydalaniladi. Ammo yangi materialni bildirish va buning natijasida o`quvchilar olingan bilimlarni idrok etish zarurligi, dastlabki zarur umumlashtirishlar qilishi kerakligi an`anaviy metodlarni boshqa metodlar bilan qo`shib olib borishni talab etadi. O`quvchilarning yangi bilimlar olishini doimiy, o`quv jarayonining barcha zvenolari uchun xos jarayon deb qaramoq kerak.



- O`qituvchi o`quv materialini bayon etganda, laboratoriya-amaliy ishlarni bajarish vaqtida, mashqlar jarayonida, mustaqil kuzatishlar vaqtida ijodiy xarakterdagi ishlarni bajarish natijasida o`quvchilar yangi bilimlar oladilar. O`qituvchining vazifasi o`quvchilar faoliyatining hamma turlarini bilimlar olish va ularni kengaytirish manbaiga aylantirishdan iborat. O`quv materialini bildirish metodini tanlash o`rganilayotgan materialning mazmuni, xarakteri va murakkabligiga, mashg`ulotlarning didaktik maqsadiga, o`qitish vositalari bor-yo`qligiga, o`quvchilarning dastlabki bilimlari va shu kabilarga ko`p jihatdan bog`liq. KHKlaridagi o`quv jarayonining o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, o`quvchilarning nazariy mashg`ulotlari bilan bir qatorda katta hajmda ishlab chiqarish ta`limi ham o`tkaziladi. SHuning uchun o`quv materialini bildirish metodlarini tanlashda o`qituvchi o`quvchilarning ishlab chiqarish, tajribalarini, ularning o`qitilish davrini, o`rganilayotgan, materialning amaliyot bilan bog`liqligini ham e`tiborga olishi zarur.


- O`quv materialini bildirish metodlarini tanlash bir qator sub`ektiv faktorlarga, shu jumladan, butun o`quv gruppasining xususiyatlariga, ayrim o`quvchilarning individual xususiyatlariga bog`liq. Nihoyat, o`quv materialini bildirish metodlarini va metodik usullarini tanlashga o`qituvchining pedagogik tajribasi, indivudal sifatleri, ish uslubi, ya`ni o`qituvchiniig pedagogik mahorati anchagina ta`sir etadi.

- **Амалий касбий таълим жараёнининг таркибий =исмлари -3**
- **Амалий касбий таълим воситалари**
- укув-моддий жихозланиш
- укув техник хужжатлар
- укувчилар учун укув кулланмалар
- Маш\улотнинг дидактик воситалари
- укитувчи учун методик кулланма
- Дастгошлар, воситалар, стендлар, укув-ишлаб чикариш куроллари, укув хоналари, машк майдончалари, машклантирувчи машиналар, ишчи ва назорат улчовлари, хом ашё материаллари ва щ.к.
- Жищозларнинг паспортлари, ишчи чизмалар, технологик хариталар, технологик жараён хариталари, иш сифатига техник талаблар, ишлаб чикариш йуриқномалари ва щ.к.
- Дарсликлар, укув кулланмалири, маълумотнома-лар, стандартлар ва меъёрлар жадвалари, амалий-лаборатория ишларини бажариш быйича курсатмалар, илгор иш усуллари хариталари ва щ.к.
- Йуриқномалар, йуриқли технологик харитлара, кып содир былвчи хатоликлар ва уларни бартараф этиш усуллари жадвали, курсатмали куроллар, таълимнинг техник воситалари, материаллари ва тайёр махсулот наъмуналари ва щ.к.
- Амалий касбий таълимни ташкил килиш ва унинг методикаси быйича кырсатма ва кулланмалар, хусусий методика, методик ишланмалар, маълумотнома кулланмалари, илгор тажрибалар тугрисида методик тавсилар
-

## Adabiyotlar:

- 
- *Azizxujaeva N.N. Pedagogicheskie texnologiya v podgotovke uchitelya. Tashkent, 2000 yil.*
- *Alnasrov I.A. Didakticheskie osnovu aktivnogo obucheniya upravlenchenskim dissiplinam. - Tashkent: Fan, 1994.*
- *Besnalko V.P. Pedagogika i progressivno`e texnologiy obucheniya. M, 1995.*
- *Bespalko V.P. Slagaemue pedagogicheskoy texnologiy. - M., 1989.*
- *Bordovskiy G.A., Izvozchikov V.A. Novo`e texnologiy obucheniya: Voproso` terminologii Pedagogika. - 1993.-№5.*
- *Galperin P. K teorii programmirovannogo obucheniya. - M., 1967.*



A vibrant, surreal illustration featuring a tall stack of colorful books (red, yellow, green, blue, orange) that form a staircase. At the top of the stack, five graduates in black gowns and caps stand against a backdrop of soft, pastel clouds. Several people are shown climbing the book-staircase: a man in a yellow shirt and green pants is climbing the left side, a woman in a purple dress is at the bottom with her arms raised, and another person is climbing the right side. The overall scene is bright and celebratory, symbolizing the journey of education and the achievement of graduation.

**Эътиборингиз  
учун рахмат!!!**